

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKIL
ETISHNING SAMARALARI**

Tojibayeva Muslina Madaminjon qizi

Namangan viloyati Chust tumanidagi 10- mabtabning ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya:

Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishi ortib bormoqda. Shu bois, umumta'lismaktablarida xorijiy tilni, jumladan ingliz tilini o'qitish darslarda interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi. Ushbu maqola umumta'lismaktablarining ingliz tili darslarida interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilishning samaralariga bag'ishlangan. Kalit so'zlar: metod, interfaol metod, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaollik.

Abstract:

Today, the younger generation is increasingly interested in learning foreign languages. Therefore, teaching a foreign language, including English, in secondary schools requires the use of interactive methods in the classroom. This article focuses on the effectiveness of organizing lessons using interactive methods in English classes in secondary schools. Keywords: method, interactive method, information and communication technologies, interactivity.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiyl va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatları bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlariga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatililar ham tilshunoslar tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yesperson, XIX asrning

oxiri va XX asr boshlarida eng ko‘zga ko‘ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, ko‘zga ko‘ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi. Rossiyada til o‘qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustozи buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug‘ullanganlar. Chet til o‘qitish metodikasiga psixologlar o‘zgacha munosabatda bo‘ldilar. Metodika va psixologiya fanlarning o‘zaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov qimmatli fikr bildirgan. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllantirish, barcha sohalarda eng ilg’or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, bu jarayonda interfaol (interaktiv) xizmatlarning imkoniyatlari yuqori baholanmoqda. O‘zbek tilining izohli lug’atida ‘‘interfaol’’ tushunchasiga axborotlarni kompyuter tarmog’i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslanish deya ta’rif berilgan. Vikipediya esa interaktivlik ob’yektlar o‘rtasidagi o‘zaro harakat xarakteri va darajasini ochib beruvchi tushuncha sifatida baholangan bo‘lib, axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya, sanoat dizayni va hokazo sohalarda qo’llanilishi aytiladi. Bir so’z bilan aytganda, interfaollik – tizimni tashkil etish tizimi bo‘lib, bu tizmning qismlari o‘rtasida axborot almashinuvini yo’lga qo‘yish orqali muayyan maqsadga erishishdir. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega . Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg’ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan

holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol ta`lim jarayonida dars o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz so`zidan olingan bo`lib, «Interakt», ya`ni, Inter - bu «o`zaro», «akt» - harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini bildiradi. Interfaollik, bu - o`zaro ikki kishi faolligi, ya`ni, bunda o`quv-biluv jarayoni o`zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o`qituvchi-o`quvchilarning o`zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o`zaro faollik, harakat, ta`sirchanlik, o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi (sub`yekt-sub`yekt) suhbatlarida sodir bo`ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o`q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda biron ta ham o`quvchi chetda qolmay, eshitgan, o`qigan, ko`rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo`ladilar Zamonaviy texnologiyalar orqali chet tili o`qitilar ekan, unda o`quvchi o`zi dars jarayonini rejalashtiradi, o`zi belgilagan o`quv rejasi asosida shug'ullanadi, o`qitish metodlarini o`quvchi va o`qituvchi hamkorlikda tanlaydi, o`quv materiali muhokamasida ishtirok etadilar. Bunda o`quvchilar birbirlariga yordam beradilar. O`qitishning interfaol usullari, tushuntirish, ko`rsatmali va vositalardan foydalanish kabi an'anaviy usullardan uning samaradorligi yuqori bo`lib, u talabalarni shaxs sifatida shakllanishi, xususiy qobilyatlarini oshirish, ijodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi . Interfaol ta`lim va an'anaviy ta`lim o`rtasida farqlarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin: 1. O`quv rejadagi fanlarni o`qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi. 2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o`quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur. 3. Interfaol mashg'ulotda o`quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.¹

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga

¹ www.ziyonet.uz

o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin. Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi. Interfaol ta'lim texnologiyasi - har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi . Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim. Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlichay tayyoragarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishslash, mustaqil fikrslash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.²

Mashg'ulotda vaqtadan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lган interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

² www.wikipedia/interfaol



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st January, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim texnologiyasining hozirgi taraqqiyot bosqichi ta'lim jarayonida interfaol dars usullarining keng qo'llanilayotganligi bilan xarakterlanadi.³ Uzoq yillar foydalanilgan o'qitish texnologiyasidagi bir xillik, ta'lim jarayonida o'qituvchi gegemonligi, o'qituvchi tamonidan fanni tayyor, ortiqcha mushohada qilmasdan ham qabul qilinadigan darajaga keltirib o'quvchiga taqdim etishga urinish o'quvchilarning faolligini pasaytirib, ularda ijodiy fikrlash malakasini shakllanishiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga o'quvchini o'qitadigan emas, balki uni o'qishga, bilim olishga o'rgatadigan interfaol dars usullari ni qo'llashga urinish kuchaydi. Xulosa qilib aytganda, dars samaradorlini ta'minlashni maqsad qilib olgan o'qituvchi interfaol dars usullaridan o'z o'mnida mohirona foydalansagina o'z maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyonet.uz
2. www.wikipedia/interfaol
3. www.ziyonet.uz